

## "SHEKSPIR VA UNING MAK BET TRAGEDIYASI"

*O‘zbekiston Davlat San‘at va Madaniyat Institutining*

*Farg‘ona Mintaqaviy filiali*

*“Teatr san‘ati va xalq ijodiyoti” fakulteti*

*“Musiqali teatr rejissyorligi” yo‘nalishi 4- bosqich talabasi*

**Axadaliyev Diyorbek**

*Ilmiy rahbar*

**Karim Yo‘ldashev**

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolamda xususan bizning dramaturgimizning bosib o‘tgan hayotiy faoliyati va ijodidagi asarlari, xususan men miriqib sevib o‘qiydigan "MAKBET" asari haqida yoritib o‘z fikrlarimni bayt etganman.*

**Kalit so‘zi:** *Teatr, ijodkor, aktyor, mutafakkir, iste‘dod, iqtibosli, chuqur antik davr, Makbet*

“Butun dunyo - teatr, undagi odamlar - aktyorlar”. Bu Shekspirning eng isloxiyali - iqtibosli iboralaridan biri haqiqatdan ham, Shekspir bejizga hayotni teatrga o‘xshatmagan. Hayotga nazar tashlasangiz hamma haqiqatdan ham o‘z hayotizda asosiy rol ni ijro etadi. Kimdir ijobiy rollarni, kimdir esa salbiy, Shekspir ham o‘zi yozgan turli janrlardagi asarlarini, sog‘lom, ruhiy va axloqiy pok obrazlarni adibimiz har bir asarlarida yoritib o‘tadi.

Uilyam Shekspir 26-aprel 1564-yil – 23-aprel 1616-yillar yashab ijod etgan, 1564 yil atrofida Stratford-on-Avonda tug‘ilgan. Uning ota-onasi Jon Shekspir va Meri Arden edi. Ota shu hududdan kelgan burjua edi, u turli tijorat ishlarida ishtirok etishdan tashqari, maslahatchi bo‘lgan, keyinchalik bu lavozim meri lavozimiga teng bo‘lgan. Onasi dehqonning qizi bo‘lgan. Uning sakkizta ukasi bor edi, ulardan uchinchi edi. Uning tug‘ilgan kunining aniq sanasi ma‘lum bo‘lmasa-da, Muqaddas Uch Birlilikning cherkovida 1564 yil 26-aprelda boshlangan suvga cho‘mish to‘g‘risidagi yozuv mavjud. Uilyam Shekspir, shuningdek Shekspir yoki Shake-speare deb yozilgan, 1564- yil atrofida Stratford-on-Avonda tug‘ilgan. Uning ota-onasi Jon Shekspir va Meri Arden. Ingliz dramaturgi, shoir va aktyor, dunyoning eng mashhur dramaturglaridan biri bo‘lib ijod qilgan. Shekspir kamida 17 ta komediya, 10 ta xronika, 11 ta fojia, 5 ta poema va 154 sonetlarning muallifi. Taxminan 1585-yilda ona shahri Stratford-upon-Avonni tark etib, birmuncha fursatdan so‘ng Londonga borgan. Teatr aktyori va dramaturg sifatidagi faoliyati 1580-yildan boshlangan. Shekspirning 1603-yildan keyingi aktyorlik faoliyati to‘g‘risida biror ma‘lumot yo‘q. Uning bu kabi mashhur qalam terovatishi dars haqiqatgi butun jahonni larzaga solgan, Shekspir o‘z asarlarini yaratishda Raphael Holinshedning Angliya tarixiga oid syujetlarga boy „Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikasi“dan samarali foydalangan. Shekspir tarixiy tragediyalarining maydonga kelishida Plutarxning „Qiyosiy hayotnomalar“, komediyalarining yozilishida esa M. Bandelloning Italiyaning Uyg‘onish davriga oid hikoyalari asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. „Romeo va Julyietta“, „Hamlet“, „Qirol Lir“ singari tragediyalarga asos bo‘lgan syujetlar asosida Shekspirga qadar ham sahna asarlari yaratilgan. Lekin bu syujetlar Shekspirga xos ulkan dramaturgik mahorat tufayli jahonshumul fikr va g‘oyalarni ifodalovchi o‘lmas asarlarning yuzaga kelishida hayotiy manba vazifasini bajargan. Shekspir o‘zigacha bo‘lgan Yevropa xalqlari tarixi, adabiyoti va teatrini o‘rganish bilan birga 17-asrning ilg‘or tafakkur

mevalaridan ham bahramand bo‘lgan va shu asosda ularni o‘zining eng yaxshi asarlarida katta badiiy kuch bilan mujassamlantirgan. Har bir tarixiy davrda kuzatilganidek, Shekspir yashagan davr ham ziddiyat va qarama-qarshiliklardan xoli bo‘lmagan, u boshqa yozuvchilardan farqli o‘laroq, o‘z davri hayotidagi bunday ziddiyatlar, ijtimoiy hayot va kishilar taqdiridagi murakkabliklarni nozik his etgan hamda shu bilan kifoyalaniq qolmay, jamiyat va inson hayotining qaltis nuqtasida yuzaga kelgan drammatizmni tasvirlashga alohida e‘tibor bergan. U haqiqiy dramaturg sifatida personajlarning u yoki bu xatti harakatlarini keltirib chiqargan ijtimoiy, maishiy, ma‘naviy va ruhiy sabablarni ochib tashlab, ularning har biriga o‘z xulq-atvoridagi keskin o‘zgarishlarni to‘la asoslash yoki izohlash imkonini yaratgan. Shekspir ijodini o‘rganish dolzarbdir, chunki uning asarlari har doim adabiyotshunoslar va tilshunoslarni hayajonlantiradi. Tadqiqotlarning aksariyati fojealardagi badiiy obrazlarni o‘rganishga bag‘ishlangan, dramaning turli qismlari va qahramonlar to‘qnashuvlari ko‘rib chiqilgan. Bizning Dramaturg Shekspir "chuqur antik davr" ning yarim mashhur, yarim adabiy afsonalaridan foydalanadi. U Xolinshed yilnomalarini o‘qiydi (Rafael Xolinshed. Angliya, Shotlandiya va Irlandiya yilnomalari. 1577). Xolinshed, o‘z navbatida, 1526 yilda Parijda birinchi marta bosilgan Gektor Boetsiyning "Scotorum Historiae" (ingliz tilidagi Boys) asariga asoslangan edi, taxminan, Shekspir bu fojiani 1606 yilda yozgan. O‘sha paytdagi qirol Jeymsga (teatr ishqibozi) hushomad qilmoqchi bo‘lgan dramaturg unga murojaat qilgan. Afsonaviy tarix Shotlandiya Fojeada muallif Styuartlar oilasidan hukmronlik qilgan monarxning ajdodi, begunoh o‘ldirilgan Banquoning xarakterini ancha yuksaltirdi. Xolinshed bilan Banquo Makbetning regiditsiyadagi sheriklaridan biri edi. Shekspirda u o‘z burchiga va do‘stlariga sodiq odamning idealidir, shuning uchun uning yuksak axloqiy xizmatlari uni Makbetsni qayta tiklash bilan shug‘ullanadi.

"MAKBET" asari tahlil

Asar haqida anotatsiya - bir qirollikda jangchi askar jangdan qaytayotganida alvastilar, unga qirol bo‘lishini bashorat qiladi, bu bashotga ishongan askar taxtni egallash maqsadida turli fitnalarni qilib qirolni o‘ldiradi va o‘zi taxtiga o‘tiradi oradan vaqt o‘tib bu qilgan ishlari fosh bo‘ladi va uni o‘ldirib ketishadi.

Asar haqida - ma‘lumot berishidan oldin, Shekspir ning ijodidan, men uchun mukammal yozilgan asar deb hisoblayman. Shekspir ning bu asari jahon miqyosida ham yirik durdona asar hisoblanadi, va hanuzgacha sevib o‘qilayotgan asarlardan biridir, asar Shotlandiya asilzodasi va qirol bo‘lish istagi haqida hikoya qiladi.

Asarning g‘oyasi - har qanday holatda ham nafsni jilovlay bilishlik.

Asarga kirish - bu asarni kirish voqeasi 3 alvasti botqoqda uchrashib qolib qilgan ishlarini muhokama qilish bilan boshlanadi.

Tugun - bu asarning tugun voqeasi alvastilar va Makbet va Bankoga taqdiri haqida bashorat qilish haqida hisoblanadi. Makbetga Karvon xamda qirollikni va‘da qiladi. Bankoga esa qirol bo‘lishini aytadi.

Keskin burilish - Bu asarda keskin burilish asosan, Bankonning o‘g‘li Filiestning o‘lmay qolishida, ya‘ni Makbet tomonidan yollangan qotillar Bankonni o‘ldirib Filiestni quvib yuborishi.

Kulminatsiya - Asaridagi asosiy kulminatsiya foqea Makduf xonimni o‘ldirilishi yani Makbet qochib ketadi, Makduf xonimni esa kushandalar kelib o‘ldirib ketishi hisoblanadi.

Yechim - Bu asarda yechim Makbetni olimi hisoblanib, ya‘ni Makbetni Makduf o‘ldirib boshidan tanasidan judo etadi.

Final - Bu asarning finali Makbetni o'limidan keyin, Bankonning o'g'li qirol hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arastu. Poetika. Ahloqi kabr.— T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Abdusamatov H. Drama nazariyasi.— T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
3. Tursunov T. Sahna va zamon. — T.: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Ikromov H. Davr va teatr — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davla ilxniy nashriyoti, 2009.
5. Tursunov T. O‘zbek teatr tarixi . — T.: Yangi asr avlodi, 2007
6. Bayandiev T. San‘at masalalari – teatrshunos nigohida – T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2009.
7. Tursunboev S. O‘zbek teatri sarhadlarida – T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2012.
8. U.Shekspir. " Makbet" tragediyasi
9. Yuldashev Karim, Joraeva Mamlakat Alijanovna - PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT 02.04.2022 - Features of Dramaturgy
10. Yuldashev Karim, Joraeva Mamlakat Alijanovna - PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT 18.06.2022. Volume 2 No 6 ISSN 2792-1883 - Gulom Zafari Dramaturdiy(1889-1938)